



**Sherzod
Mustafakulov**

**Xalqaro Nordik rektori
Iqtisodiyot fanlari
doktori, professor**

ORCID: 0000-0002-5427-1338



“

Annotatsiya: Davlatlar borki rivojlanishda barqarorlik bilan beqarorlik, taraqqiyot yoki tanazzul, yuksalish yoxud inqirozga yuz tutishi, tabiiy. Dunyoda yuz bergan global moliyaviy inqirozlarning sodir bo'lish sabablari, tendensiyalari, muammolari va murakkab sharoitlarda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarur omillarni ko'rib chiqishda davom etamiz. Bugungi tahlilimiz Yevropaning nufuzli, boy tarixga ega davlatlaridan biri Fransiyaning moliyaviy inqirozi xususida.



”

Kirish


XVII asrda Buyuk Britaniyaning asosiy raqibi Fransiya bo'lib qoldi. Ikki davlat o'rtasida ispan taxti tufayli kelib chiqqan urush (1701-1714) Buyuk Britaniya uchun foydali sulh tuzilishi bilan yakunlandi. Unga ko'ra, Gibraltar Buyuk Britaniyaga o'tdi.

Devalvatsiya, inflyasiya, davlatning bankrotligi, fond bozori inqirozi va bank vahimasi – bizga hozirgacha tanish bo'lgan bu tushunchalar XVIII asr boshlarida Fransiya bir paytning o'zida sodir bo'lgan. Buning “qahramoni” esa tarixda sezilarli iz qoldirgan Fransiyaning o'sha paytdagi moliya nazoratchisi, shotlandiyalik Jon Lou edi. Fransiyaning katta miqdordagi qarzidan oson qutilish uchun inflyasiyani (pul qadrsizlanishini) sun'iy ravishda yuzaga keltirgan. Buning oqibatida moliyaviy inqiroz vujudga kelgan.

1715 yilda qirol Lyudovik XIV ning vafotidan so'ng, Fransiyaning moliyaviy holati og'ir ahvolda qoldi. Byudjetda davlatning katta qarzlarini to'lash tugul uning foizlarini qoplashga ham mablag' yo'q edi. Yangi qirol atigi 7 yoshda bo'lganligi sababli, barcha vazifalar regentning (vaqtincha qirol vazifasini bajaruvchi), ya'ni Orlean gersogi Filipp II ning zimmasiga tushgan edi.



IKKINCHI GLOBAL INQIROZ: SABABLAR OQIBATLAR VA YECHIMLAR



Fransiya moliyaviy inqirozi
(1634-1637)

Umoliyaviy muammolarni puxta o'ylanmagan xatti-harakat va qarorlar bilan hal qila boshladi. Islohotlarni qayta tanga (devalvatsiya kabi) ishlab chiqarish bilan boshladi. Eski oltin va kumush tangalar davlat tomonidan qaytarib olindi va ular shu nom va qiymatdagi, ammo tarkibida 20 foizdan kam bo'lgan qimmatbaho metal tangalarga almashtirildi. Ulardan hosil bo'lgan jamg'arma esa xazinani to'ldirish uchun xizmat qilishi kerak edi. Soliq to'lashdan bosh tortganlarga nisbatan qattiq choralar ko'rildi va hatto qatl ham qilindi.

Bunday usullar bilan olingan pullarning yarmi xazinaga qo'shildi, qolgan qismi esa regentning yaqin odamlari, amaldorlar va bunday imkoniyatga ega bo'lgan boshqa shaxslar tomonidan o'zlashtirildi. Moliyaviy qiyinchiliklarning o'sishda davom etishi ko'pchilikda umidsizlikni keltirib chiqardi. Shunda regent, bir muncha vaqt oldin o'z loyihalari bilan murojaat qilgan, biznes va moliya sohasida katta tajriba va bilimga ega bo'lgan Jon Louni (1671–1728) esga oladi. Regent Louni Fransiya iqtisodiyoti va moliyasini qutqaruvchi shaxs sifatida ko'radi va unga ishonadi.

Lou aslida shotlandiyalik qochoq bo'lib, duelda bir insonni o'ldirgan tamg'asiga ega shaxs edi. Lekin shunga qaramay Louning moliya va biznes bo'yicha bilimlari yetarli edi. Dastlab, u o'z bilimlaridan foydalanib, bildirilgan ishonchni oqlashga urindi. Louning fikriga ko'ra, iqtisodiyotning to'xtab qolishi va soliqlarning kam yig'ilishiga asosiy sabab bu pulning yetishmasligi. U oltin va kumush tangalar muomalasini qirol hokimiyatining homiyligi ostida maxsus bank qog'oz pullari-banknotalari bilan to'ldirishni taklif qildi. Uning fikricha, bu pullar yangi qon singari iqtisodiyotni jonlantirishi va xazinaga daromad keltirishi kerak edi. Bu Fransiya uchun yangi g'oyadek edi.

1707-yilda parlament Angliya va Shotlandiya o'rtasidagi uniyan qonuniylashtirdi. Endi mamlakat Buyuk Britaniya, deb ataladigan bo'ldi. 1716-yilda parlament vakolati 6 yillik etib belgilandi. Shu tariqa mamlakatda professional, doimiy ishlaydigan parlamentga asos solindi.

1716 yil may oyida ustav kapitali 6 million livraga teng bo'lgan bank tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. (Kumush livrasi Fransiyaning asosiy pul birligi edi. Hozirgi kumush narxiga taxminan 40 syent turadi.) Ana shundan so'ng «Generale Privee» (Umumiy xususiy bank) yaratildi, bu nafaqat bank, balki qog'oz pullardan foydalanishni rivojlantirgan birinchi moliya instituti ham hisoblanadi.

Kapital, cheklanganligi tufayli bank aksiyalari qisman metal tangalarga, qisman davlat zayomlari evaziga tashkil topgan edi. Bank tomonidan chiqarilgan har qanday banknotalar qonuniy pul sifatida tan olingan. Qog'oz pullar fransuzlar uchun yangi tushuncha edi. Chunki ular uchun pul asosan oltin va kumush hisoblangan. Lou qog'ozlar muomaladagi pulni ko'paytiradi, bu esa, o'z navbatida, tijoratni yurgizadi, deb hisoblagan va qolganlarni ham shunga ishontirgan. Xususan, ular soliq to'lash uchun ham ishlatilgan.

Lou banknotalar erkin muomaladagi metal tangalarga chiqarilgan sanaga nisbatan erkin almashtirilishini ma'lum qildi. Endi tanga ichidagi metal miqdori davlat tomonidan kamaytirilsa, banknota egasi tegishli miqdordagi tangalardan ko'proq olar edi. Bu oqilona harakat bo'lib, banknotalarning qimmatbaho metallardan yasalgan tangalardan ko'ra qadrliroq bo'lishini ta'minladi. Bozorda ular ko'pincha tangalarga nisbatan qimmatliroq, deb hisoblanar edi. Ko'p o'tmay, mamlakat iqtisodiyoti yengillashdi. Inqirozga yuz tutayotgan savdo ham jonlana boshladi. Soliqlar esa odatdagidan ko'proq to'lanar, shikoyatlar ham kamaya borar edi. Davlatga bo'lgan ishonch qayta tiklandi. Qirollikdagi barchaning e'tibori Louning bankiga qaratilgan, nufuzi esa kundan-kunga oshib borayotgan edi. Bank boshqa katta viloyatlarda ham o'z filiallarini ocha boshladi. Regent bankning ajoyib muvaffaqiyatlaridan hayratda qoldi va Louga ishonchi yanada oshdi.

Shunda Lou o'zining ikkinchi mashhur loyihasini ilgari surdi. U Missisipi daryosining quyi oqimidagi oltin va boshqa qimmatbaho narsalarga boy fransuz yerlari bilan savdo-sotiqda aksionerlik kompaniyasini tuzish va unga monopoliya mavqeini berishni taklif qildi. Kompaniya aksiyadorlardan tushgan katta mablag'larni yig'ib, uni daromadli biznesga jalb qilishi kerak edi. Ushbu yerlar qirol Lyudovik (Lui) XIV nomi bilan atalib, Luiziana deyilar edi. Shundan so'ng Lou 1717 yilning avgust oyida o'zining ikkinchi biznesini, ya'ni "Compagnied' Occident" (G'arb kompaniyasi) nomli kompaniyasini ochdi.



Uning joylashgan o'rnidagi shaharlar-ga hozirgi shtatlar: Luiziana, Missisipi, Arkanzas, Missuri, Illinoys, Ayova, Viskonsin va Minnesota kiradi. Luiziana shtatining Missisipi daryosiga ulanishi kompaniyaning eng mashhur "Missisipi kompaniyasi" nomini yuzaga keltirdi. Tez orada Lou kompaniyasi fransuz tamaki va afrikalik qullar savdosini monopollashtirdi. 1719 yilga kelib "Compagnie des Indes" (Hindiston kompaniyasi) nomi o'zgartirilganligi sababli, Fransiya mustamlakachilik savdosining to'liq monopoliyasi egallab oldi.

"Missisipi kompaniyasi"ning tashkil qilinishi yevropada aholi sonining ikki baravarga oshishiga xizmat qildi. Bu yerda ishlash uchun asosan muhojirlar va mahbuslar olib kelingan. Lekin 1720 yilning may oyida Fransiya kon-sessionerlar muhojirlarning ustidan shikoyat qilganlari uchun ularni olib kelish to'xtatiladi. Shunga qaramay 1721 yil yana bir bor muhojirlarning uchinchi guruhi olib kelingan.

1720 yilda bank va kompaniya birlashtiriladi va Orlean gersogi Filipp II tomonidan moliya bosh nazoratchisi etib tayinlanadi. Shuningdek, Jou Fransiya soliqlarini yig'ish va pul zarb qilishni o'z zimmasiga oladi, amalda u mamlakat tashqi savdosini ham, moliyaviy holatini ham boshqargan.

Inqiroz oqibatlari

Kompaniya tomonidan har biri 500 livr bo'lgan 200 ming dona aksiyalar chiqarishga ruxsat berildi. Aksiya sotib oluvchilar nafaqat tanga va banknotalar bilan, balki davlatning

majburiyatlari bilan ham to'lashlari mumkin edi. Shunday qilib, kompaniya davlat kreditoriga aylandi. Ushbu yangi qimmatli qog'ozlarga nisbatan kuchli talab yuzaga keldi. Aksiyalar esa tarixdagi birinchi Spekulyativ fond birjasi-ning inqirozini keltirib chiqardi.

Qimmatbaho qog'ozlarga bo'lgan talab-ni qondirish maqsadida Lou o'z mablag'larini ushbu operatsiyaga yo'naltirdi. Aksiyalar atigi 250 livrga sotilayotganda u aksiya sotib olish-ni istaganlarga 500 livrdan 200 ta aksiyani, olti oydan so'ng, bozordagi narxi qancha bo'lishi-dan qat'iy nazar to'lashni taklif qildi. Ushbu bitim ko'pchilikni nazdida bema'ni bo'lib ko'ringan edi, ammo bunda o'ziga yarasha nozik hisob-kitoblar ham bor edi va bu o'zini to'la oqladi. 6 oydan so'ng hisoblashish vaqti kel-ganda 1 ta aksiyaning narxi 5000 livrga yetgan edi va Lou bilan bitim tuzgan sotuvchilar har bir aksiyadan 4500 livr yutgan edilar.

Ushbu kelishuvda Lou ham yaxshi daromad topdi, lekin u boylik jamg'arishga unchalik qiziqmasdi: unga o'z g'oyasini amalga oshirish muhimroq edi. Bu ishlar uning e'tibori-ni vaqtincha bankning ishlaridan chalg'itdi, bu orada esa, bank nomi «Bank Royale» deb o'zgartirildi va markaziy bankning prototipiga aylandi. Shu bilan birga, bank qimmatbaho metallar zaxirasi bilan yetarli darajada ta'minlanmagan yangi pullar chiqarish, g'aznachilikni moliyalashtirishni boshladi. Bu esa, juda xavfli oqibatlarning boshlanishi edi.

Missisipi kompaniyasining aksiyalari hukumat himoyasida bo'lib, katta foydalar va'da qilingan edi. Lou kompaniya nomidan kelgusi yilda aksiyalar uchun ajoyib dividendlar va'da

qildi, bu esa ularga bo'lgan talabni keskin ko'tarib yubordi. Kompaniya qo'shimcha 50 ming aksiyaga obuna bo'lishini e'lon qildi, qisqa vaqt ichida talabgorlardan 300 mingtagacha ariza topshirildi. Uning uyi tezda boyib ketish umididagi odamlar bilan to'lib ketgan edi. Aksiyadorlar ro'yxatiga kirmoqchi bo'lganlar ichida gersog, markiz, graflar ham bir necha soat davomida tomoshabin bo'lib kutishardi. Louning kuch va qudrati yuqori darajaga ko'tarildi. Odamlarning nazarida u sehrigar bo'lib, havodan ulkan boylik yaratishga qodir edi.


Jamiyatning barcha tabaqalari tez boyib ketish ilinjida edi. O'sha paytdagi aristokratlar orasida bu maniyaga ishonmagan deyarli hech kim yo'q edi. Louning uyi yaqinidagi Kenkampua tor ko'chasida birja shakllanib, odamlar bilan gavjum edi. Yarmarkada nafaqat savdogarlar, balki ko'plab qiziquvchan tomoshabinlar ham bor edi. Oqibatda, Parijning turli burchaklaridan, Fransiyaning boshqa shaharlaridan va hattoki chet ellardan ham ko'plab o'g'ri, firibgar va qaroqchilar kelib, sang'ib yurishardi.

O'sha paytda qirol kechqurun tinchlikni saqlash uchun armiyani tunda ko'chalarda yurishga buyurdi. Boylik orzu-havasi xalqning ko'zini shunchalik ko'r qilib qo'ygan ediki, yaqinlashib kelayotgan qora bulutlarni ko'rishni ham istamas edi.

1720 yilning birinchi yarmida Qirollik mulohaza yuritmasdan yana banknotalarini ishlab

chiqarmoqchi bo'ldi. Regent: Agar 500 million livrdan shunchalik yaxshi natija bo'lgan bo'lsa, unda nega yana shunday qilmasligimiz kerak, deb o'ylay boshladi. Lekin u aksiyalarga bo'lgan ehtiyoj faqatgina odamlarning ochko'zligi ekanligi haqida o'ylamas edi.

Barchasi Louning eng ashaddiy dushmanlaridan biri bo'lgan shahzoda de Kontining bankdan banknotalarni metall pullarga almashtirishni talab qilishi bilan boshlandi. Ushbu xavfni sezgan Lou regentga borib qarindoshi bo'lgan shahzodaning ushbu talabidan voz kechishi kerak ekanligini aytadi. Shahzoda unchalik mashhur emas edi. Biroq, bu Lou va uning homiysiga yetarlicha ogohlantirish bo'lmadi. Bu orada shamol qayerga esayotganini syezgan bir qancha zodagonlar bankdan qimmatbaho metal pullarni olib chiqa boshladilar. Qimmatli qog'ozlar narxi 1720 yil yanvar oyida pasayishni boshladi, chunki ba'zi investorlar kapitaldagi yutuqlarni oltin tangaga aylantirish uchun aksiyalarni sotdilar. Sotishni to'xtatish uchun Jou oltindan 100 livrdan ortiq to'lashni cheklab qo'ydi. Kompaniya odamlarni oltindan ko'ra qog'oz pullarni qabul qilishga majbur qilayotgan edi. Qimmatli qog'ozlar aksiyalarini pulga aylantirishga qaratilgan ushbu urinish Fransiya pul massasining to'satdan ikki baravar ko'payishiga olib keldi.



Yechimlari

O'shanda inflyasiya ko'tarila boshlaganligi ajablanarli emas. 1720 yil yanvar oyida inflyasiya darajasi oylik 23 foizga yetdi. Inqirozning yangi bosqichi kompaniyaning aksiyalari pasayishi bilan boshlandi. Moliyaviy inqiroz avj oldi. Odamlar qog'oz pul to'lovlarini qabul qilishdan bosh tortdilar va metal pullarni talab qila boshladilar. Lou ishtirokida hukumat inqirozni bartaraf etish bo'yicha turli rejalarni muhokama qildi, ammo banknotalarni arzonlashtirishdan boshqa yo'l topa olmadilar.

1720 yilning 21 mayida metaldagi banknotalarning qiymati ikki baravar kamayganligi e'lon qilindi. 27 mayda esa bank to'liq pul almashtirishni to'xtatdi. Inflyasiyaning barcha belgilari yaqqol ko'rinishga keldi. Qog'oz pullarining muomalasi iqtisodiyotning real ehtiyojlariga umuman mos kelmas edi. Endi narxlarining o'sish manbai iqtisodiyotning yuksalishi emas, balki inflyasiyaning ko'payishi edi. 1720 yil avgust oyida 1000 livrlik banknota 400 livr metal pullarga, sentyabrda esa 250 livrga almashtirilar edi.

Qolgan davlat qarzlari muammosi musodara qilish yo'li bilan hal qilindi. Kreditlar orasida g'azna majburiyatlarini sotib olganlar va qonuniyligini isbotlay olmaganlar ajratildi hamda ushbu qimmatli qog'ozlar shunchaki bekor qilindi. Boshqa majburiyatlari bo'yicha foizlar miqdori bir necha barobar o'zboshimchalik bilan kamaytirildi. Rasmiy ravishda bu davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish va ularning muomalasi bilan bog'liq ko'plab huquqbuzarliklar fosh etilganligi bilan izohlandi. Lou tizimining qulashi XVIII asrda Fransiya iqtisodiyotiga, asr oxiridagi inqilobga qadar juda katta ta'sir ko'rsatdi. Missisipi kompaniyasi va butun Lou tizimidagi firibgarliklar Fransiya davlati bank va sanoat rivojlanishini sekinlashtirdi. Odamlarning banklarga bo'lgan ishonchi va munosabati ko'p yillar davomida salbiy holatda qoldi.

Jon 1720 yil davomida bir necha bosqichda kompaniyaning aksiyalarini qadrsizlantirdi va banknotalarning nominal qiymati 50 foizigacha pasaytirildi. 1720 yil sentyabrgacha kompaniyaning aksiyalari narxi 2000 livrgacha, dekabrgacha esa 1000 gacha tushdi. Qimmatli qog'ozlar narxining pasayishi Jonning dushmanlariga o'zlarining aksiyalarini kredit bilan emas, balki haqiqiy aktivlar bilan to'laganligini isbotlay olmagan investorlarning aksiyalarini musodara qilish orqali kompaniyani

boshqarish huquqini olishga imkon berdi. Bu investorlarning aksiyalari yoki muomaladagi aksiyalarning uchdan ikki qismiga kamaydi. 1721 yil sentyabrga kelib aksiyalar narxi boshida bo'lganidek, 500 livrgacha tushdi. Missisipi kompaniyasining ko'tarilishi va qulashi Missisipi qabariq nomi bilan mashhur bo'ldi. Moliya dunyosidagi "ko'pik" - aksiyalar bahosining yoki ko'chmas mulkka boshqa aktivlarning odatiy bo'lmagan tez o'sishiga nisbatan qo'llaniladigan atamaga aylandi.

O'sishdan keyin narxlarning bir xil darajada tez qulashi kuzatiladi. Narxlarning dahshatli tebranishlari odatda mantiqsiz va sarmoyaviy amaliyotga emas, balki nazoratsiz spekulyatsiya mahsuli sifatida qaraladi. Iqtisodchilar Jonning sxemasini qanday izohlash borasida ikkiga bo'lingan.

Yel Universitetining iqtisodiy tarixchisi Charlz Kindleberger Jonning niyatlari qonuniy va Missisipi kompaniyasi haqiqiy korxona bo'lishni maqsad qilgan, deb hisoblaydi. Biroq Jonning moliyaviy kelishuvlari noto'g'ri ishlatilgan. Boshqalarning ta'kidlashlaricha, Jon Fransiyaning soliq va moliya tizimlarini tuzatishga yordam berdi. Iqtisodchi Piter Garber Jonning tizimi ko'pincha ishonilganidan ko'ra ko'proq imkoniyatlarga ega, deb hisoblaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Циклы и кризисы: теоретико-методологический аспект. – М.; СПб.: Нестор-История, 2013. – 504 с.
2. Repke W. Crises and Cycles. L., 1936
3. Robbins L. The Great Depression. L., 1934
4. Яковец Ю.В. Циклы. Кризисы. Прогнозы. М., 1999
5. Яковец Ю.В., пирогов С.В. Закономерности циклической динамики и генетики науки и культуры. М., 1993
6. Татаркин А.И. Прогнозные оценки глубины и масштабности мирового кризиса // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2010. № 1.
7. Форрестер Дж. Мировая динамика. М., 2003.
8. Сорос Дж. Мировой экономический кризис и его значение. Новая парадигма финансовых рынков. М., 2010
9. Румянцева С.Ю. Длинные волны в экономике: многофакторный анализ. СПб., 2003.
10. Fink S. Crises Management: Planning for the Inevitable. Backinprint.com, 2000.